

Begimova Gulshoda Jahon qizi

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Xorijiy tillar kafedrası assestenti

Email: beginmovagulshoda84@gmail.com

UO‘K 8.81.81-13.81‘23

Texnika oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda produktiv ko‘nikmalarning ahamiyati

Annotatsiya: Yuksak kelajak yaratish va jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashga shaxdam qadamlar bilan intilayotgan davlatimiz uchun yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash muhim va dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Talabalarning texnik ijodkorligini ya‘ni texnik yaratuvchanlik qobiliyati va ilmiy izlanish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta‘limning eng muhim vazifalaridan biridir.

Kalit so‘zlar: interfaol texnologiyalar, produktiv ko‘nikmalar, kombinatsiya, retseptiv, rolly o‘yinlar, bahs-munozaralar, mantiqiy zanjir, innovatsion yondashuvlar, nofilologik ta‘lim, integratsiyasi.

Бегимова Гулшода Жахон кызы

Каршинский инженерно-экономический институт

Ассистент кафедры иностранных языков

Email: beginmovagulshoda84@gmail.com

Значение продуктивных навыков в подготовке специалистов в высших учебных заведениях.

Аннотация: Подготовка высококвалифицированных, конкурентоспособных специалистов является одним из важных и актуальных вопросов для нашей страны, стремящейся создать светлое будущее и занять достойное место в мировом сообществе. Развитие технического творчества учащихся, то есть способностей технического творчества и способности к научному исследованию, является одной из важнейших задач современного образования.

Ключевые слова: интерактивные технологии, продуктивные навыки, сочетание, рецептивные, ролевые игры, аргументы, логическая цепочка, инновационные подходы, нефилологическое образование, интеграция.

Begimova Gulshoda Jahon qizi

Karshi Engineering-Economics Institute

Assistant at the Department of Foreign Languages

Email: beginmovagulshoda84@gmail.com

The importance of productive skills in training specialists in higher educational institutions.

Abstract: *Training of highly qualified, competitive specialists is one of the important and urgent issues for our country, which is striving to create a bright future and take a worthy place in the world community. Development of technical creativity of students, i.e. the ability of technical creativity and the ability of scientific research, is one of the most important tasks of modern education.*

Key words: *interactive technologies, productive skills, combination, receptive, role-playing games, arguments, logical chain, innovative approaches, non-philological education, integration.*

Kirish: Mutaxassislar tanlagan soha yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, ingliz tili o'qitish jarayonida kerakli interfaol texnologiyalarni qo'llash bo'lajak kadrlarni til o'rganish imkoniyatlarini oshiradi. Bunda muqobillik usullaridan ham foydalanish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni boshqa davlatlarning ta'lim tizimidagi muqobil uslublarini qabul qilish yo'li bilan talabalarda til o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish, produktiv ko'nikmalarni shakllantirishda interfaol metodlardan turli kombinatsiyalarda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Uslubiyotchi olimlarimizdan J.Jalolov ta'kidlaganlaridek, talabalar matn mazmunini obrazga kirib ifodalash orqali yoki matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrlari bayoni orqali tushunishlari yanada osonroq amalga oshadi, hamda, o'z fikr-mulohazalarini suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etishi, talabalarda lug'at boyligini ortishiga, ingliz tilida to'g'ri fikrlashlariga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi interaktiv sharoitda til o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun chet tilida retseptiv va produktiv ko'nikmalarni shakllantiradigan materiallarni yanada takomillashtirish usullarini tanqidiy ko'rib chiqish zarur. Produktiv ko'nikmalarni ya'ni yozish va gapirish ko'nikmalarini quyida keltirilgan interfaol metodlar yordamida shakllantirish juda muhim ahamiyatga ega. Bu interfaol metodlarga guruhda ishlash, aqliy hujum, muammoli

vaziyatlarda o'rganish, rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, mantiqiy zanjir kabi kiradi va bu interfaol metodlar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, chunki ular talabalarni o'z bilimlari bilan faol ishtirok etishga, fikr bildirishga va ijodiy yondashishga undaydi deb o'ylaymiz. Bu metodlar orqali o'quvchilar bilim olish jarayonining markazida bo'lishadi va bu jarayonni faqat passiv tinglovchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida o'tkazadilar. Bunday ko'nikmalar talabalarni nafaqat bilimli mutaxassis sifatida tayyorlash, balki ularni kelajakda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlashda ham yordam beradi degan fikrdamiz. Yaxshi rivojlangan yozish va gapirish ko'nikmalari vaqtni tejash, muloqotni soddalashtirish, hamkorlikni kuchaytirish va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish orqali produktivlikni oshirishga xizmat qiladi. Biz bilamizki, texnika sohasidagi mutaxassislar ko'pincha murakkab vazifalar, tez o'zgaruvchan texnologiyalar va yuqori darajadagi mas'uliyat bilan ishlashlari kerak bo'ladi, shuning uchun produktiv ko'nikmalarni rivojlantirish o'qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur deb hisoblayman. Produktiv ko'nikmalarning ahamiyati quyidagilarni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda murakkab loyihalarni boshqarish turadi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalar ko'pincha murakkab loyiha va vazifalar bilan shug'ullanadilar. Bu kabi murakkab mashg'ulotlar esa ko'p bosqichli rejalashtirish, vaqtni samarali boshqarish va resurslarni optimal taqsimlashni talab qiladi. Produktiv ko'nikmalar va interfaol metodlardan foydalanish bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi va yanada samaraliroq natija beradi degan fikrdamiz. Keyingi o'rinda vaqtni samarali boshqarish produktiv ko'nikmalarning ahamiyatini yanada oshiradi deb o'ylaymiz.

Muhokama: Texnik mutaxassislar ko'pincha bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalar va vazifalar ustida ishlashlari kerak bo'ladi. Produktiv ko'nikmalar talabalarni vaqtni to'g'ri boshqarishga, ustuvorliklarni belgilashga va muhim vazifalarni o'z vaqtida bajarishga o'rgatadi deb o'ylaymiz. Bu kabi

jarayonlarda muammolarni samarali hal qilish muhim rol o'ynaydi. Mexatronika sohasidagi mutaxassislar ilmiy jihatdan yangi va noan'anaviy, hali o'rganilmagan muammolarga duch kelishadi va ularni hal qilishlari kerak bo'ladi. Fikrimizga ko'ra, produktiv ko'nikmalar, xususan, ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyati, bunday muammolarni innovatsion yondashuvlar orqali hal qilishda yordam beradi va bunday holatda o'zaro hamkorlik va muloqot muhim ahamiyatga kasb etadi. Ko'pgina texnik loyihalar jamoaviy ishni talab qiladi. Produktiv ko'nikmalar talabalarni samarali jamoaviy ishlashga, o'z fikrlarini aniq ifodalashga va boshqalar bilan samarali muloqot qilishga o'rgatadi. Bu ko'nikmalar texnika mutaxassislari uchun ham muhimdir, chunki ko'pgina muammolar hamkorlikda va bilim almashish orqali hal etiladi. Texnika sohasidagi talabalar va mutaxassislar ko'pincha yuqori darajadagi stress va katta bosim ostida ishlaydilar. Produktiv ko'nikmalar stressni samarali boshqarish, o'z-o'zini tartibga solish va muvozanatni saqlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali talabalarni bunday sharoitlarda muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlaydi. Shuningdek, texnika mutaxassislari yangi texnologiyalarni yaratish va rivojlantirishda ishtirok etadilar. Produktiv ko'nikmalar, xususan, ijodkorlik, innovatsion fikrlash va yangi yondashuvlarni izlash qobiliyatlari, bunday jarayonlarda juda muhimdir. Texnika oliy ta'lim muassasalarida produktiv ko'nikmalarni interfaol metodlar orqali rivojlantirish talabalarni nafaqat texnik bilimlar bilan ta'minlaydi, balki ularni kelajakda kompleks muammolarni hal qila oladigan, vaqtni samarali boshqara oladigan va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga qodir bo'lgan mutaxassislar sifatida shakllantiradi. Bu ko'nikmalar ularning professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida katta rol o'ynaydi deb o'ylaymiz. Ingliz tilini faqatgina tilshunoslar til nuqtayi nazaridan o'rganish va ingliz tilini umumiy maqsadlarda EGP (English for general purposes) egallashlari emas, balki boshqa soha vakillari ham o'zlarining kasblarini kelajakda rivojlantirish maqsadida ESP (English for specific purposes) ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rganishlari zamon talabi etib

qo'yilmoqda. Bu borada hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar va shu qatori yurtimizda ham ingliz tilini nofilologik yo'nalishlarda o'qitishni amalga oshirish uchun ko'plab ishlar qilinmoqda. Boshqa soha vakillari ingliz tilini o'rganishlari nimani anglatadi? degan savol tug'ilishi mumkin, bunga javob tarzida: shifokor, uchuvchi, mexanik, dizayner, kimyogar, biznesmen va boshqa kasb egalarining o'z yo'nalishi bo'yicha kelajakda egallab turgan kasbini rivojlantirish maqsadida ingliz tilini o'rganishlari nazarda tutiladi va bu ilm fanda ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun o'qitish ESP (English for specific purposes) deb yuritiladi. Tilshunos bo'lmagan boshqa soha vakillari uchun, ya'ni nofilologik ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun ESP o'qitish EGP dan anchagina farq qiladi va o'qituvchi va o'quvchidan ham katta mas'uliyat talab qilinadi.

Natija: Tom Hutchinson va Alan Waltherning (1987) fikriga ko'ra, ESP ning muomalaga kirib kelishida ikkita muhim tarixiy davr asosiy ro'l o'ynaydi. Birinchidan, ikkinchi jahon urushining tugashi, o'zi bilan xalqaro miqyosda ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy faoliyatning ulkan va misli ko'rilmagan kengayish davrini olib keldi. Turli xil sabablarga ko'ra, Qo'shma Shtatlarning iqtisodiy qudrati sababli urushdan so'ng xalqaro til sifatida ingliz tilidan foydalanish ommaviy tus oldi. Ikkinchi sabab esa, 1970-yillar boshidagi neft tanqisligi G'arb boylik va bilimlarning neftga boy mamlakatlarga oqib kelishiga olib keldi. Bu hodisa ingliz tili nufuzini yanada ko'tardi va oldin ingliz tili o'z taqdirini o'zi hal qilgan bo'lsa, endilikda u til o'quvchilardan tashqari boshqa insonlarning xohish-istak, talab va ehtiyojlariga bo'ysuna boshladi. Anglaganimiz kabi Ingliz tili fanining rivojlanishida ham tarixiy ham siyosiy omillar muhim rol o'ynaydi. Ingliz tili tarixiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillar natijasida jahon miqyosida yetakchi tilga aylandi. Britaniya imperiyasi tomonidan boshlangan bu jarayon AQShning yetakchi iqtisodiy va siyosiy qudrati, xalqaro tashkilotlar, ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohalarida ingliz tilining keng qo'llanilishi bilan yanada kuchaydi. Hozirgi kunda ingliz tili

nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilmiy va texnik til sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, dunyo bo'ylab taraqqiyot va globallashuvning muhim omillaridan biri deb hisoblaymiz. Tilshunoslik fanlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ESP paydo bo'lishining ikkinchi asosiy sabablaridan edi. Oldingi davrlarda tilshunoslar tilning xususiyatlarini tavsiflashga kirishgan bo'lsa, endilikda tilning real muloqotda qo'llanilish usullariga e'tibor qarata boshladilar. Muhim kashfiyotlardan biri ingliz tilining og'zaki va yozma (produktiv) nutq shakllarini o'rgatishda o'ziga xos qiyinchiliklardir. Agar turli vaziyatlarda til turlicha bo'lsa, u holda til o'rgatishni muayyan kontekstlarda o'rganuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib moslashtirish ham mumkin. Shu tarzda, 1960-yillarning oxiri va 1970- yillarning boshlarida ingliz tilini fan va texnologiya tili (EST-English for science and technology) sifatida o'rganila boshlandi.

Xulosa: Bizning fikrimizcha, bu davr ilmiy va texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ko'plab xalqaro ilmiy jurnallar va konferensiyalar asosan ingliz tilida olib borilardi. Shu sababli, ilm-fan va texnologiya sohasidagi mutaxassislar ingliz tilini o'zlashtirishga ehtiyoj sezishdi. O'quv materiallari, ilmiy maqolalar, patentlar va texnik hujjatlar ham aynan ingliz tilida yaratilgani tufayli bu til ushbu sohalarda asosiy aloqa vositasi bo'lib qoldi. EST kurslari aynan ilmiy va texnik matnlarni tushunish, ixtisoslashgan terminologiyani o'rganish va texnikaviy kommunikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, ushbu davr ingliz tilining jahon ilmiy hamjamiyatidagi yetakchi mavqeyini mustahkamlashga yordam berdi deb o'ylaymiz. ESP yondashuvini turli tadqiqotchilar turlicha tariflagan. Shunday tariflardan biri:” tilni o'qitishga yondashuv, unda mazmun va uslub bo'yicha barcha qarorlar o'rganuvchining tilni o'rganish sababiga asoslanadi deb hisoblashadi. Ya'ni, bu yondashuvning asosiy tamoyili shundaki, o'quv jarayoni tinglovchilar ehtiyojlari va ularning maqsadlariga moslashgan bo'ladi.

ESP kurslari an'anaviy umumiy ingliz tili kurslaridan farqli o'laroq, maxsus kasbiy yoki akademik maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan deb hisoblaymiz. Thomas Orr (1998) ning fikriga ko'ra," Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) umumiy maqsadlar uchun ingliz tili (EGP) bilimlari asosiga qurilgan o'qitish bo'lib, talabalarning aniq maqsadlarini amalga oshirish uchun ma'lum fanlar yoki kasblarda ishlatiladigan ingliz tili bo'yicha tayyorlashga mo'ljallangan". Yuqorida keltirilgan fikrlarga qaraydigan bo'lsak, ikkalasi ham deyarli bir xil mazmunni anglatadi, lekin Thomas Orrning fikri nisbatan aniq va lo'ndaroq, chunki qanday maqsadda ingliz tili o'qitilmasin, albatta, fundamental umumiy bilimlar kerak bo'ladi yani, EGP bo'lishi talab etiladi. Yana bir olimning fikriga qiziqadigan bo'lsak," ESP- bu maxsus maqsadli til o'rgatishning umumiy toifasining alohida holati", -deb ta'kidlaydi Peter Strevens (1988). Strevens ESPni uning mutlaq va o'zgaruvchan xususiyatlarini ko'rsatish orqali aniqlab berdi. Strevens (1988) ESPning o'ziga xos to'rtta xususiyatini ko'rsatib o'tdi"

1. O'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan talablar
2. Ingliz tili o'qitish mazmunining muayyan fan, kasb va ixtisosliklar bilan bog'liqligi (integratsiyasi)
3. Leksika, grammatika va talaffuzni o'rgatishda ushbu faoliyatga mos keladigan til va nutq mashqlarini tahlil qilishga qaratilganligi
4. Maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitish umumiy maqsadlarda ingliz tilini o'qitishdan farq qilishi. Biz bilamizki, ESP (Maxsus Maqsadlarda Ingliz Tili) o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yuqoridagi nuqtalarda aniq aks etadi. Bu yondashuv, birinchidan, o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan bo'lib, har bir o'rganuvchining kasbiy yoki akademik faoliyati uchun muhim bo'lgan til ko'nikmalariga e'tibor qaratadi. Shu sababli, ESP kurslari o'quvchilarning real hayotdagi talablarini va ish faoliyatida kerak

bo'ladigan til kompetensiyalarini chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Ingliz tili o'qitish mazmunining muayyan fan, kasb va ixtisosliklar bilan bog'liqligi (integratsiyasi) muhim ahamiyatga ega. ESP kurslari an'anaviy ingliz tili darslaridan farqli o'laroq, o'quvchilarning o'zlari o'rganayotgan yoki ishlayotgan sohalari bilan chambarchas bog'liq materiallar va kontentni o'z ichiga oladi. Masalan, huquq sohasi uchun ESP kurslarida huquqiy terminologiya va huquqiy muloqot shakllari, muhandislik uchun esa texnik hujjatlar va texnik loyihalar bilan bog'liq til ko'nikmalari o'rgatiladi. Bu esa o'rganuvchilarning kasbiy ehtiyojlariga mos bilim olishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xotamov J.S. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar"
Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari. Dekabr 2021, 320-bet
2. Xoliyorov B.H. "Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan yo'nalishlarda ingliz tilini o'qitishda leksik kompetensiyasini rivojlantirish" Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand, 2021. 21,22-betlar
3. Utambetova A.K. "Ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Pedagog respublika ilmiy jurnali. Noyabr 2022, 345-bet
4. Begimova G.J. "Leksik sath birliklari tavsifi" NamDU Ilmiy axborotnomasi. 2024-5-son. 553-bet
5. Shoyimova Sh. S., Xoshimova M.K "Ta'lim texnologiyalari" Toshkent 2020. 168-bet